

преимущество, но важно помнить о необходимости соблюдения этических норм и инвестиций в развитие технологий.

**Список источников:**

1. Кашеварова Н. А., Панова Д. А. Анализ современной практики применения технологии искусственного интеллекта в финансовой сфере и его влияния на трансформацию финансовой экосистемы // Креативная экономика. 2020. Т. 14, № 8. С. 1565-1580.

2. Сыроева А. Ф., Искандарова Р. Р. Искусственный интеллект в оценке рисков, возникающих при банковском финансировании или краудфандинге // Вестник магистратуры. 2020.

3. Чебуханова Л. В. Искусственный интеллект и его влияние на трансформацию финансовых инструментов // Вестник Академии знаний. 2024.

## **DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH MEXANIZMI**

***Djurayev Paxlavonjon Usarovich***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchi*

Davlatning qarz majburiyatlarini boshqarish makroiqtisodiy siyosatning elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qarzdin samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning kuchli faktori bo'lishi mumkin. Mamlakatning xalqaro kapital bozorida barqaror holati, qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishi uni xalqaro obro'ini mustahkamlashga imkoniyat yaratadi va yanada foydaliroq shartlar bilan qo'shimcha investitsiyani ko'plab oqib kelishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, mamlakatning milliy valyutasiga bo'lgan ishonchni oshiradi va tashqi savdo aloqalarini mustahkamlaydi.

Albatta har qanday davlat va hukumat oldida turgan asosiy vazifalardan biri davlatning iqtisodiy rivojlanishi ta'minlash orqali aholining hayotiy farovonligini oshirish hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda davlatning o'z ichki imkoniyatlari yetmagan vaziyatlarda tashqi manbalardan foydalanadi. Iqtisodiy farovonlikni ta'minlashda shubxasiz qarzni vujudga kelishi iqtisodiy nuqtayi nazardan to'g'ri hisoblanadi. Ya'ni, moliyaviy mustaqillik mamlakat tashqi qarzdin butunlay qutulishi kerak degani emas. Aksincha, amaliyot shuni ko'rsatadiki, agar mablag'lar samarali taqsimlansa, kredit yoki mablag'lar olish mamlakat taraqqiyotida juda muhim rol o'ynaydi. Lekin buning uchun jalb qilingan qarz mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan va bu jarayonning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklari va xarajatlarini minimallashtiradigan samarali tashqi qarzni boshqarish tizimi zarur, hisoblaymiz. Qarzni boshqarishning tashkiliy tuzilishi quyidagi uchta asosiy bosqichdan iborat bo'lishi kerak deb o'ylaymiz.

1. Qaror qabul qilish. Bunda davlat rahbari yoki Vazirlar mahkamasining tegishli qarori asosida tashkil etilgan yuqori turuvchi muvofiqlashtiruvchi organ. Ushbu organ qarzni jalb qilishda ulardan samarali foydalanishgacha bo'lgan barcha vazirlik yoki tashkilotlarning o'zaro faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi organ bo'lishi lozim.

2. Makroiqtisodiy tahlil va prognoz. Bunda muvofiqlashtiruvchi organ tomonidan qarzni taqsimlovchi bo'linmalar tomonidan olinadigan loyihalar bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar tahlili va prognozlarini keng o'rganib chiqish lozim. Shuningdek, mustaqil tashkil etilgan mutaxassislar va olimlar bilan birgalikdagi ekspertlar kengashi tomonida qarzning barqarorligi, maqroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri va iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilinadi va asosiy prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi.

3. Qarz bo'yicha axborotlar bilan ta'minlash va monitoring. Ushbu bosqichda ikkita yo'nalish tashkil etilib, birinchisi qarzdor subyekt qarzi bo'yicha hisobotlarini ishlab chiqadi va tegishli tartibda taqdim etib boradi. Ikkinchisi, alohida tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan mavjud hisobot ma'lumotlari asosida qarzdorlarning samaradorligini KPI me'zoni orqali baholaydi va mablag'lardan samarali foydalanishning monitoringini amalga oshiradi.

Qarzni boshqarishning tashkiliy tuzilishi va ularga doir belgilanadigan maqsad va vazifalar alohida tartibda ishlab chiqilgan qarzni boshqarish strategiyasida aks ettirilishi kerak. Fikrimizcha, davlat qarzini boshqarish strategiyasi, tashqi va ichki qarzni boshqarish bo'yicha uzoq muddatli maqsad va vazifalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish mexanizmi va shartlarini belgilash tizimidir. Qarzni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda aniq vazifa, maqsad va tamoyillar keltirilishi lozim. Bizningcha, davlat qarzini boshqarish strategiyasi va uning asosiy yo'nalishlarini quyidagi rasm orqali ifodalashimiz mumkin (1-rasm). Tashqi qarzni samarali boshqarishning asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- tashqi qarz olish shartlari va maqsadlari o'z ichiga qamrab olgan siyosatni ishlab chiqilganligi;


- qarzni xavfsizlik darajasini saqlab turishda optimal qarz tuzilmasini shakllashtirish maqsadida mavjud qarzni restrukturizatsiya qilish;

- kredit majburiyatlari, to'lovlar va barcha kreditlar hamda qarzga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalarni monitoringini yuritish;

- byudjet daromadlarini shakllantirish va valyuta bozorini boshqarish samaradorligini ta'minlash uchun qarz va qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini prognozini tayyorlash;

- kreditorlar bilan domiy axborotlar almashinuvi bo'yicha munosabatlarni davom ettirish, kreditorlarni makroiqtisodiy o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilish;

- investitsiya dasturiga kiritish uchun loyihalarni tanlash bo'yicha mexanizmni ishlab chiqish. Loyihalar texnik-iqtisodiy standartlarga va mamlakat amaldagi siyosatning ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi kerak;



**1-rasm. Davlat qarzini boshqarish strategiyasi va uning yo'nalishlari<sup>188</sup>**

- raqamli texnologiyalar yordamida alohida ma'lumotlar bazasida qarz bo'yicha aniq va batafsil ma'lumotlarni birlashtirish;
- sohalar yoki kreditorlar kesimida kredit portfelini muntazam auditini amalga oshirish tartibini joriy etish. Audit natijalariga ko'ra samarali

<sup>188</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

ishlamayotgan loyihalarni bekor qilish va yangi kreditlar berishni to'xtatish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Albatta, davlat qarzini samarali boshqarish davlatning barcha tegishliligi bo'yicha vazirlik va tashkilotlarning faoliyat uyg'unligini ta'minlashni taqozo etadi. Yuqorida biz tomondan samarali boshqarishga doir asosiy jihatlar, davlat boshqaruvining barcha darajalarida qarz siyosatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan qarz majburiyatlarini shakllantirish va boshqarishda ishtirok etishi bilan bir qatorda ularning samaradorligini yanada oshirish bevosita nazorat mexanizmi ishlab chiqilganligiga ham bog'liq. Bizga ma'lumki, O'zbekistonda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston - 2030" Strategiyasida "davlat ma'lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish orqali davlat boshqaruvida ma'lumotlarni to'plash va raqamlashtirish uchun kerak bo'lgan barcha resurslarni yaratish orqali asoslangan qarorlarni qabul qilishni avtomatik ravishda shakllantirish" masalasi alohida qayd etib o'tilgan. Mazkur mexanizmlarni samarali yo'lga qo'yilishi davlat tomonidan jalb qilingan qarz mablag'laridan samarasiz foydalanish, talon-taroj qilish, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olishda juda muhim hisoblanadi.

## **AHOLINING MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI OQILONA BOSHQARISHDAGI USTUVOR MASALALAR**

***Pulatova Adolat Djaxangirshyevna***

*International School of Finance Technology and Science Institute  
"Biznes Boshqaruv" kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Moliyaviy savodxonlik fuqarolarning shaxsiy moliyalarini to'g'ri boshqarishi, investitsiya qilish va kreditlash jarayonlarini oqilona yuritishiga yordam beradi. Byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish esa davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy savodxonlik, byudjet-soliq tizimi, soliq siyosati, investitsiya, kreditlash, shaxsiy moliya, iqtisodiy barqarorlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы повышения финансовой грамотности населения и эффективного управления бюджетно-налоговой системой. Финансовая грамотность помогает гражданам правильно управлять личными финансами, инвестировать и рационально использовать кредитные ресурсы. Эффективное управление бюджетно-налоговой системой обеспечивает стабильное развитие экономики государства.

**Ключевые слова:** Финансовая грамотность, бюджетно-налоговая система, налоговая политика, инвестиции, кредитование, личные финансы, экономическая стабильность.